

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





KICHIK BIZNESNING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O'G'LI

Qo'qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: bomonqulov1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashning nazariy va uslubiy jihatlarini tadqiq etilgan. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, moliyaviy resurslar, inson kapitali, boshqaruv samaradorligi va bozor raqobatbardoshligining o'рни yoritilgan. Tadqiqotda innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda faqat moliyaviy natijalarni hisobga olish bilan cheklanib qolmasdan, korxonaning innovatsion salohiyati, yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish imkoniyatlari, texnologik yangilanish darajasi, raqamli infratuzilmasi hamda tashqi muhit omillarini kompleks baholash zarurligi asoslangan. Shuningdek, kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini shakllantirishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, innovatsion rivojlanish, innovatsion strategiya, strategik boshqaruv, innovatsion salohiyat, raqamli texnologiyalar, raqobatbardoshlik, inson kapitali, moliyaviy resurslar, innovatsion faoliyat, baholash mezonlari, raqamli infratuzilma.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и методологические аспекты оценки стратегии инновационного развития малого бизнеса. Раскрыта роль цифровых технологий, финансовых ресурсов, человеческого капитала, эффективности управления и рыночной конкурентоспособности в развитии инновационной деятельности субъектов малого бизнеса. Обоснована необходимость комплексной оценки стратегии инновационного развития с учетом не только конечных финансовых результатов, но и инновационного потенциала предприятия, возможностей внедрения новых продуктов и услуг, уровня технологического обновления, цифровой инфраструктуры, а также факторов внешней среды. Раскрыто значение формирования критериев и показателей оценки стратегии инновационного развития малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, инновационное развитие, инновационная стратегия, стратегическое управление, инновационный потенциал, цифровые технологии, конкурентоспособность, человеческий капитал, финансовые ресурсы, инновационная деятельность, критерии оценки, цифровая инфраструктура.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological aspects of evaluating the innovation development strategy of small businesses. It highlights the role of digital technologies, financial resources, human capital, management efficiency, and market competitiveness in the development of innovative activities of small business entities. The study substantiates the need for a comprehensive assessment of the innovation development strategy, taking into account not only final financial results but also the innovation potential of enterprises, opportunities for introducing new products and services, the level of technological renewal, digital infrastructure, and external environmental factors. The importance of developing evaluation criteria and indicators for the innovation development strategy of small businesses is also substantiated.

Keywords: small business, innovation development, innovation strategy, strategic management, innovation potential, digital technologies, competitiveness, human capital, financial resources, innovation activity, evaluation criteria, digital infrastructure.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobat muhitining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, iste'molchilar talabining tez o'zgarishi va global bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlari kichik biznes subyektlaridan





doimiy yangilanishni talab qilmoqda. Bugungi kunda kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishi faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki xizmatlar ko'lamini kengaytirish bilan emas, balki innovatsion rivojlanish strategiyasini to'g'ri shakllantirish va uni samarali baholash bilan bevosita bog'liqdir. Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash masalasi zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida tadbirkorlik, innovatsion menejment, strategik boshqaruv, raqobatbardoshlik va institutsional rivojlanish nazariyalari kesishuvda o'rganiladi. Bu holat mazkur mavzuning faqat amaliy emas, balki chuqur nazariy-metodologik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kichik biznes milliy iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari yirik korxonalarga nisbatan tez moslashuvchan, bozor talablariga tez javob beradigan va yangi g'oyalarni amaliyotga tezroq tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lgan iqtisodiy tuzilmalar hisoblanadi. Biroq ularning innovatsion rivojlanish imkoniyatlari ko'p hollarda moliyaviy resurslarning cheklanganligi, kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan to'liq foydalana olmaslik bilan cheklanadi.

Shu sababli kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda faqat yakuniy moliyaviy natijalarni emas, balki innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni ham kompleks o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki innovatsion strategiya korxonaning yangi mahsulot yoki xizmat yaratish qobiliyati, texnologiyalarni joriy etish darajasi, boshqaruv tizimi, kadrlar malakasi, moliyaviy barqarorligi, raqamli infratuzilmasi va bozordagi raqobat mavqei bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion rivojlanishni baholashga oid turli yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotlarda innovatsion faoliyat ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan xarajatlar, yangi mahsulotlar ulushi va patentlar soni orqali baholanadi [1]. Boshqa tadqiqotlarda esa innovatsion rivojlanish korxonaning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, bozorga moslashuvchanligi, inson kapitali va institutsional muhit bilan bog'liq holda izohlanadi [2]. Demak, kichik biznesning innovatsion rivojlanishini baholash ko'p o'lchamli yondashuvni talab qiladi.

Innovatsiya nazariyasining klassik asoschisi sifatida Y. Shumpeterning "yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish" haqidagi g'oyasi innovatsion rivojlanishning mohiyatini ochib beradi. U "new combinations" tushunchasi orqali yangi mahsulot, yangi ishlab chiqarish usuli, yangi bozor, yangi xomashyo manbai va yangi tashkiliy shakllarni iqtisodiy taraqqiyot manbai sifatida baholaydi [3]. Shumpeter qarashlaridan kelib chiqqanda, kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda faqat korxonada yangi mahsulot mavjudligini emas, balki uning resurslarni yangi usulda birlashtirish





qobiliyatini ham hisobga olish lozim. Masalan, kichik biznes subyekti mavjud mehnat, kapital, axborot va texnologiya resurslarini yangicha biznes-model asosida birlashtira olsa, bu uning innovatsion salohiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Demak, "innovatsion salohiyat" mezonini baholashda yangi mahsulotlar ulushi, innovatsion loyihalar soni, texnologik yangilanish darajasi bilan birga biznes-model yangiligi, bozorga chiqish usuli va mijozlar bilan ishlash mexanizmlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq.

Druker [4]ning qarashlari kichik biznes innovatsion strategiyasini baholashda "maqsadlilik" va "amaliy natija" mezonlarini kiritish zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni kichik biznesda innovatsiya mavjud bo'lishi mumkin, ammo u bozor ehtiyojiga mos kelmasa, mijozlar sonini oshirmasa, xarajatlarni kamaytirmasa yoki foyda o'sishiga ta'sir qilmasa, uni samarali innovatsiya deb baholash qiyin. Shuning uchun baholash tizimida innovatsion faoliyat natijalari — savdo hajmi o'sishi, bozor ulushi, mijozlar soni, mahsulot tannarxi, foyda normasi va eksport salohiyati kabi ko'rsatkichlar alohida o'rin egallashi lozim.

Rojers [5] nazariyasi asosida kichik biznes innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda innovatsiyani qabul qilish tezligi, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi, xodimlarning yangilikka tayyorligi va mijozlarning yangi mahsulot yoki xizmatni qabul qilish darajasi muhim ko'rsatkichlar sifatida qaralishi mumkin. Masalan, elektron to'lovlar, onlayn savdo platformalari, CRM tizimi, ijtimoiy tarmoqlarda marketing va raqamli hujjat aylanishi kichik biznesda innovatsiyalarning amaliy tarqalishini ko'rsatuvchi muhim belgilar hisoblanadi.

D. Tis, G. Pisano va E. Shuen [6] tomonidan ishlab chiqilgan "dinamik qobiliyatlar" nazariyasi ham kichik biznes innovatsion strategiyasini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning ta'kidlashicha, tez texnologik o'zgarishlar sharoitida firmaning raqobat ustunligi uning resurslari bilan birga ushbu resurslarni qayta birlashtirish va yangilash qobiliyatiga bog'liq. Ularning tadqiqot ishida dinamik qobiliyatlar sharoitida xususiy firmalarda qiymat yaratish va uni egallash manbalarini tahlil qilishi qayd etiladi.

Ushbu yondashuvlar kichik biznes faoliyati uchun dolzarb hisoblanib, kichik biznes subyektlari yirik korxonalarga nisbatan kamroq resursga ega bo'lishiga qaramay, ular tez qaror qabul qilish, bozor talabiga moslashish, yangi texnologiyani tez joriy etish va biznes jarayonlarni qayta tashkil etish imkoniyatiga ega. Shuning uchun kichik biznes innovatsion strategiyasini baholashda "moslashuvchanlik", "texnologik o'zgarishlarga javob berish tezligi", "boshqaruv qarorlarining tezkorligi" va "resurslarni qayta taqsimlash qobiliyati" kabi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi.

J. Barnining [7] resurslar asosidagi nazariyasiga ko'ra, firmaning barqaror raqobat ustunligi uning noyob, qimmatli, taqlid qilinishi qiyin va tashkilot tomonidan samarali foydalaniladigan resurslariga bog'liq. Barni firma resurslari va barqaror raqobat ustunligi o'rtasidagi bog'liqlikni strategik boshqaruvning muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida asoslaydi. Bu yondashuv kichik biznes innovatsion rivojlanishini baholashda kadrlar salohiyati, nou-xau, mahalliy





bozorni bilish, mijozlar bilan ishlash tajribasi, brend, raqamli ko'nikmalar va tashkiliy madaniyat kabi nomoddiy resurslarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini kompleks baholashga asoslanib, unda resurslar, innovatsion jarayonlar va yakuniy natijalar o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Baholashda korxonaning moliyaviy imkoniyatlari, kadrlar salohiyati, raqamli infratuzilmasi, texnologik imkoniyatlari va bozor sharoitlari asosiy omillar sifatida belgilanadi. Innovatsion jarayonlarning samaradorligi yangi texnologiyalarni joriy etish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, elektron savdo va raqamli marketingdan foydalanish darajasi orqali aniqlanadi. Innovatsion rivojlanishning yakuniy natijalari esa yangi mahsulot va xizmatlar ulushi, sotuv hajmi, mehnat unumdorligi, bozor ulushi va innovatsion daromad kabi ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Tadqiqotda mazkur ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish orqali kichik biznesning innovatsion strategiyasi samaradorligi va rivojlanish darajasi aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sharoitida ham innovatsion rivojlanish davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezidentning 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan 2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlangan [1]. Mazkur hujjatda innovatsion ekotizimni rivojlantirish, hududlar kesimida maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash va innovatsion faollikni oshirish masalalari nazarda tutilgan. Bu esa kichik biznes innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda hududiy xususiyatlar, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va innovatsion infratuzilma omillarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda uchta asosiy jihatga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, korxonaning innovatsion resurslari, ya'ni moliyaviy, kadrlar, texnologik va axborot resurslari baholanishi kerak. Ikkinchidan, innovatsion jarayonlar, ya'ni yangi mahsulot yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, marketing va boshqaruvda yangiliklarni qo'llash darajasi aniqlanishi lozim. Uchinchidan, innovatsion natijalar, ya'ni savdo hajmining o'sishi, bozor ulushining kengayishi, eksport imkoniyatlarining oshishi, foyda va raqobatbardoshlik darajasi tahlil qilinishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda "resurs – jarayon – natija" modeliga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu model innovatsion rivojlanishni faqat natija sifatida emas, balki unga olib keluvchi imkoniyatlar va boshqaruv jarayonlari bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi.



Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini ifodalovchi mezonlar tizimini shakllantirishda korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qamrab olish zarur. Mezon – bu baholashning asosiy yo'nalishi bo'lib, u korxonaning innovatsion rivojlanish holatini ma'lum bir jihatdan ifodalaydi. Ko'rsatkich esa ushbu mezonning miqdoriy yoki sifat jihatidan ifodalanishidir (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari[1]

T/r	Baholash mezonlari	Ko'rsatkichlar mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlar	Mezonning baholashdagi ilmiy-amaliy ahamiyati
1	Innovatsion salohiyat	Korxonaning yangilik yaratish va joriy etish imkoniyati	Yangi mahsulotlar ulushi, innovatsion loyihalar soni, R&D xarajatlari, patent va ishlanmalar	Innovatsion salohiyat korxonaning yangi mahsulot yoki xizmat yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu mezon doirasida korxonada innovatsion loyihalar mavjudligi, yangi mahsulotlar ulushi, texnologik yangilanish darajasi va ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratilgan mablag'lar baholanadi. Innovatsion salohiyat yuqori bo'lgan kichik biznes subyektlari bozor talablariga tez moslashadi va raqobat ustunligiga ega bo'ladi.
2	Moliyaviy barqarorlik	Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish imkoniyati	Sof foyda, investitsiya hajmi, o'z mablag'lari ulushi, kreditga kirish imkoniyati	Moliyaviy barqarorlik kichik biznesning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatini ifodalaydi. Innovatsiya muayyan xarajatlarni talab qiladi. Yangi texnologiya sotib olish, xodimlarni qayta tayyorlash, marketing tadqiqotlarini o'tkazish, raqamli platformalarni joriy etish yoki yangi mahsulot ishlab chiqish uchun korxonada yetarli moliyaviy imkoniyat bo'lishi lozim. Shu bois sof foyda, o'z mablag'lari ulushi, investitsiya hajmi va kreditga kirish imkoniyati muhim ko'rsatkichlar sifatida baholanadi.
3	Raqamli transformatsiya	Axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi	Onlayn savdo ulushi, CRM/ERP tizimlari, elektron to'lovlar, avtomatlashtirilgan jarayonlar	Raqamli transformatsiya darajasi kichik biznesning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holatini ko'rsatadi. Bugungi kunda elektron savdo, raqamli to'lovlar, CRM va ERP tizimlari, onlayn marketing, ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar xarajatlarni kamaytiradi, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilaydi va boshqaruv qarorlarini tezlashtiradi.
4	Kadrlar salohiyati	Innovatsion jarayonni amalga oshiruvchi inson kapitali	Malakali xodimlar ulushi, qayta tayyorlash xarajatlari, IT ko'nikmalarga ega xodimlar	Kadrlar salohiyati innovatsion rivojlanishning asosiy manbai hisoblanadi. Kichik biznesda moliyaviy va moddiy resurslar cheklangan bo'lishi mumkin, ammo malakali, tashabbuskor va yangi texnologiyalarni o'zlashtira oladigan xodimlar mavjud bo'lsa, korxona innovatsion rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli xodimlarning malaka darajasi, qayta tayyorlash xarajatlari, IT ko'nikmalari va innovatsion fikrlash qobiliyati baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.
5	Bozor raqobatbardoshligi	Korxonaning bozordagi mavqei va moslashuvchanligi	Savdo hajmi o'sishi, mijozlar soni, bozor ulushi, eksport ulushi	Bozor raqobatbardoshligi korxonaning bozordagi mavqei va mijozlar talabiga moslashuvchanligini ifodalaydi. Innovatsion strategiya natijasi, avvalo, bozorda namoyon bo'ladi. Agar yangi mahsulot yoki xizmat mijozlar ehtiyojiga mos kelsa, korxonaning savdo hajmi, mijozlar soni va bozor ulushi oshadi. Shuning uchun bozor raqobatbardoshligi innovatsion rivojlanish strategiyasining muhim natijaviy mezon sifatida qaralishi lozim.
6	Tashkiliy-boshqaruv samaradorligi	Strategik boshqaruv va qaror qabul qilish sifati	Biznes reja mavjudligi, innovatsion strategiya, risklarni boshqarish, marketing tahlili	Tashkiliy-boshqaruv samaradorligi korxonada strategik qarorlar qabul qilish, innovatsion faoliyatni rejalashtirish va nazorat qilish tizimini ifodalaydi. Kichik biznes subyektlarida boshqaruv ko'p hollarda rahbarning shaxsiy tajribasiga bog'liq bo'ladi. Biroq innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun biznes-reja, marketing tahlili, risklarni boshqarish, innovatsion strategiya va ichki nazorat tizimi mavjud bo'lishi zarur.
7	Infratuzilmaviy ta'minlanganlik	Innovatsion faoliyat uchun zarur shart-sharoitlar	Internet sifati, logistika, ishlab chiqarish maydoni, texnopark va inkubatorlar bilan aloqa	Infratuzilmaviy ta'minlanganlik kichik biznesning innovatsion faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatadi. Internet sifati, logistika imkoniyatlari, ishlab chiqarish maydoni, energiya ta'minoti, texnoparklar, biznes-inkubatorlar va kovorking markazlaridan foydalanish innovatsion rivojlanishni tezlashtiruvchi omillar hisoblanadi.
8	Institutsional qo'llab-quvvatlash	Davlat va nodavlat institutlaridan foydalanish darajasi	Subsidiya, grant, imtiyozli kredit, konsalting, akseleratsiya dasturlarida ishtirok	Institutsional qo'llab-quvvatlashdan foydalanish darajasi kichik biznes subyektlarining davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanayotganini ifodalaydi. Subsidiya, grant, imtiyozli kredit, kafillik, konsalting, biznes-inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari kichik biznesning innovatsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda barcha tadbirkorlar ham ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmaydi. Shu bois mazkur mezonni baholash tizimiga kiritish maqsadga muvofiq.
9	Eksport va kooperatsiya salohiyati	Korxonaning tashqi bozor va hamkorlik tizimiga kirish imkoniyati	Eksport shartnomalari, kooperatsiya aloqalari, klasterlarda ishtirok, tashqi hamkorlar soni	Eksport va kooperatsiya salohiyati kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqish, yirik korxonalar bilan hamkorlik qilish, klasterlar va kooperatsiya zanjirlarida ishtirok etish imkoniyatini ifodalaydi. Innovatsion strategiya faqat ichki bozorda emas, balki tashqi bozorda ham raqobatlashish imkoniyatini yaratishi lozim. Shu sababli eksport shartnomalari, tashqi hamkorlar soni, kooperatsiya aloqalari va klasterlarda ishtirok etish darajasi baholanishi zarur.
10	Ekologik va ijtimoiy innovatsiyalar	Barqaror rivojlanish talablariga moslashuv	Resurs tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni kamaytirish, ijtimoiy mas'uliyat loyihalari	Ekologik va ijtimoiy innovatsiyalar kichik biznesning barqaror rivojlanish talablariga moslashuvini ifodalaydi. Bugungi kunda innovatsion rivojlanish faqat iqtisodiy foyda bilan cheklanmaydi. Resurslarni tejash, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, aholi bandleligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va ijtimoiy mas'uliyat loyihalari ham innovatsion strategiyaning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.



1-jadvalda kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash uchun zarur bo'lgan asosiy mezonlar va ko'rsatkichlar tizimlashtirilgan. Jadvalda mavjud mezonlar kichik biznes subyektlarining innovatsion imkoniyati, resurslardan foydalanish darajasi va bozordagi natijadorligini kompleks baholash imkonini beradi. Shu bois mazkur jadval kichik biznes innovatsion strategiyasining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, uni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashda muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq. Miqdoriy ko'rsatkichlar aniq hisob-kitoblar orqali ifodalanadi. Masalan, investitsiya hajmi, savdo o'sishi, eksport ulushi, yangi mahsulotlar soni, onlayn savdo ulushi va foyda darajasi miqdoriy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Sifat ko'rsatkichlari esa ekspert baholash, so'rovnoma, intervyu va reyting usullari orqali aniqlanadi. Boshqaruv sifati, innovatsion fikrlash, mijozlar qoniqishi va risklarni boshqarish holati sifat ko'rsatkichlari orqali baholanishi mumkin.

Kichik biznes innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda turli usullardan foydalanish mumkin. SWOT-tahlil korxonaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlashga xizmat qiladi. PESTEL-tahlil tashqi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni baholash imkonini beradi. Ekspert baholash usuli sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda qo'llaniladi. Benchmarking esa kichik biznes subyektlarini ilg'or korxonalar yoki hududlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Korrelyatsion-regression tahlil innovatsion omillarning natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini umumlashgan holda baholash uchun integral indeks usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki innovatsion rivojlanish ko'p omilli jarayon bo'lib, uni faqat bitta ko'rsatkich orqali baholash to'g'ri natija bermaydi. Integral indeks esa turli ko'rsatkichlarni umumlashtirib, yagona baholash natijasini olish imkonini beradi.

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish indeksi quyidagi formula orqali hisoblanishi mumkin:

$$I_{ir} = \sum_{i=1}^n W_i \times K_i$$

Bu yerda:

I_{ir} – kichik biznesning innovatsion rivojlanish indeksi;

W_i – har bir mezonning salmoq koeffitsiyenti;

K_i – mezon bo'yicha normallashtirilgan ko'rsatkich;

n – baholash mezonlari soni.

Ushbu formulada har bir mezon bo'yicha normallashtirilgan ko'rsatkich belgilangan salmoq koeffitsiyentiga ko'paytiriladi va natijalar umumlashtiriladi. Natijada kichik biznes subyektining innovatsion rivojlanish darajasini ifodalovchi umumiy indeks hosil bo'ladi.



Ko'rsatkichlarni 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda taqqoslash uchun normallashtirish usulidan foydalaniladi. Agar ko'rsatkichning yuqori bo'lishi ijobiy natijani anglatga, quyidagi formula qo'llaniladi:

$$K_i = \frac{X_i - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

Bu yerda:

X_i – baholanayotgan korxona ko'rsatkichi;

X_{min} – tanlangan korxonalar guruhidagi eng past ko'rsatkich;

X_{max} – tanlangan korxonalar guruhidagi eng yuqori ko'rsatkich.

Agar ko'rsatkichning yuqori bo'lishi salbiy holatni ifodalasa, masalan, qarz yuki, xarajatlar ulushi, risk darajasi yoki mahsulot tannarxining ortishi, teskari normallashtirish formulasidan foydalaniladi:

$$K_i = \frac{X_{max} - X_i}{X_{max} - X_{min}}$$

Integral indeksni hisoblashda mezonlarga salmoq koeffitsiyenti berish muhim ahamiyatga ega. Agar barcha mezonlar teng ahamiyatga ega deb qaralsa, ularga teng salmoq beriladi. Biroq kichik biznesning innovatsion rivojlanishida ayrim mezonlar boshqalariga nisbatan muhimroq hisoblanadi. Masalan, innovatsion salohiyat, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya va kadrlar salohiyati asosiy tayanch mezonlar hisoblanishi mumkin.

2-jadval

Kichik biznes innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlarining salmoq koeffitsiyentlari

T/r	Mezonlar	Salmoq koeffitsiyenti
1	Innovatsion salohiyat	0,15
2	Moliyaviy barqarorlik	0,12
3	Raqamli transformatsiya	0,12
4	Kadrlar salohiyati	0,10
5	Bozor raqobatbardoshligi	0,12
6	Tashkiliy-boshqaruv samaradorligi	0,10
7	Infratuzilmaviy ta'minlanganlik	0,08
8	Institutsional qo'llab-quvvatlash	0,08
9	Eksport va kooperatsiya salohiyati	0,08
10	Ekologik va ijtimoiy innovatsiyalar	0,05
Jami		1,00

Ushbu salmoq koeffitsiyentlari ekspert baholash usuli orqali aniqlashtirilishi mumkin. Bunda soha mutaxassislari, tadbirkorlar, iqtisodchi olimlar va davlat qo'llab-quvvatlash institutlari vakillarining fikrlari inobatga olinadi. Shuningdek, salmoqlarni aniqlashda entropiya usuli, analitik iyerarxiya usuli yoki korrelyatsion tahlildan ham foydalanish mumkin. Integral indeks natijalari kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash imkonini beradi.



3-jadval

Kichik biznes innovatsion rivojlanish darajasini baholash shkalasi

Integral indeks qiymati	Baholash darajasi	Izoh
0,00–0,30	Past daraja	Innovatsion strategiya shakllanmagan yoki juda zaif
0,31–0,50	Qoniqarli daraja	Ayrim innovatsion tashabbuslar mavjud, ammo tizimli yondashuv yetarli emas
0,51–0,70	O'rta daraja	Innovatsion faoliyat mavjud, lekin moliyaviy, raqamli yoki kadrlar cheklovlari saqlanib qolgan
0,71–0,85	Yuqori daraja	Innovatsion strategiya amalda qo'llanilmoqda, raqobatbardoshlik o'smoqda
0,86–1,00	Juda yuqori daraja	Korxona barqaror innovatsion o'sish va eksport salohiyatiga ega

Mazkur shkala asosida kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanish darajasi aniqlanadi. Agar integral indeks 0,30 dan past bo'lsa, korxonada innovatsion strategiya shakllanmagan yoki juda zaif holatda deb baholanadi. Bunday korxonalar uchun birinchi navbatda moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, biznes-rejalashtirish va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlariga jalb etish zarur.

Agar indeks 0,31–0,50 oralig'ida bo'lsa, korxonada ayrim innovatsion tashabbuslar mavjud, ammo ular tizimli strategiyaga aylanmagan bo'ladi. Bunday holatda innovatsion faoliyatni rejalashtirish, marketing tadqiqotlarini kuchaytirish, mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Indeks 0,51–0,70 oralig'ida bo'lsa, korxonada innovatsion faoliyat mavjud, lekin moliyaviy, raqamli yoki kadrlar bilan bog'liq cheklovlar saqlanib qolgan bo'ladi. Bunday korxonalar uchun investitsiya jalb qilish, kadrlar malakasini oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Indeks 0,71–0,85 oralig'ida bo'lsa, korxona innovatsion strategiyani amalda qo'llayotgan va raqobatbardoshlik darajasini oshirayotgan subyekt sifatida baholanadi. Bunday korxonalar uchun eksportga chiqish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va texnologik modernizatsiyani davom ettirish zarur.

Indeks 0,86–1,00 oralig'ida bo'lsa, korxona yuqori innovatsion salohiyatga ega, barqaror o'sish va eksport imkoniyatlariga ega subyekt sifatida baholanadi. Bunday korxonalar hududiy innovatsion ekotizimda yetakchi subyektlar sifatida qaralishi mumkin.

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- baholash maqsadini belgilash;
- tadqiqot obyekti sifatida kichik biznes subyektlarini tanlash;
- baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini shakllantirish;
- statistik, moliyaviy va so'rov ma'lumotlarini yig'ish;
- ko'rsatkichlarni normallashtirish;
- salmoq koeffitsiyentlarini belgilash;
- integral indeksni hisoblash;





- kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash;
- asosiy muammoli yo'nalishlarni aniqlash;
- innovatsion strategiyani takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Andijon viloyati misolida kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Andijon viloyatida aholi zichligi yuqori, mehnat resurslari yetarli, tadbirkorlik faolligi nisbatan rivojlangan, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida kichik biznes subyektlari muhim o'rin tutadi. Shu sababli ushbu hududda kichik biznes innovatsion strategiyasini baholashda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, yoshlar tadbirkorligi, raqamli xizmatlar, eksportga yo'naltirilganlik, kooperatsiya va mahalliy infratuzilma omillariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bizning fikrimizcha, Andijon viloyati kichik biznes subyektlari uchun innovatsion rivojlanish strategiyasini takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish;
- biznes-inkubator va akseleratsiya dasturlaridan foydalanish;
- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- mahalliy kooperatsiya zanjirlarini rivojlantirish va kadrlar malakasini oshirish.

Shuningdek, kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki barcha korxonalar uchun bir xil qo'llab-quvvatlash choralari qo'llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Past darajadagi korxonalar uchun boshlang'ich konsalting, biznes-rejalashtirish va raqamli savodxonlik zarur bo'lsa, o'rta darajadagi korxonalar uchun investitsiya, marketing va kadrlar tayyorlash muhimdir. Yuqori darajadagi korxonalar esa eksport, texnologik modernizatsiya va klaster aloqalari orqali yanada rivojlantirilishi mumkin.

Demak, kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholashda umumiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, har bir korxonaning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit bilan bog'liq holatlarini kompleks tahlil qilish zarur. Bunda innovatsion salohiyat, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya, kadrlar salohiyati, bozor raqobatbardoshligi, tashkiliy-boshqaruv samaradorligi va institutsional qo'llab-quvvatlash asosiy mezonlar sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilganda, kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash bo'yicha yagona, barcha holatlar uchun universal hisoblangan usul mavjud emas. Shuning uchun kichik biznes subyektlarining faoliyat xususiyatlari, hududiy sharoitlar, tarmoqlar kesimidagi farqlar va innovatsion imkoniyatlardan kelib chiqib, kompleks baholash tizimini qo'llash maqsadga muvofiq. Integral





indeks usuli orqali kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash, ularni guruhlariga ajratish, muammoli yo'nalishlarni belgilash va innovatsion strategiyani takomillashtirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Bunda kichik biznes innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy maqsadi korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, eksport va kooperatsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishdan iborat bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: PF-4947-son Farmon, 2017-yil 7-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022–2026-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-165-son Farmon, 2022-yil 6-iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida: PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-6079-son Farmon, 2020-yil 5-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik statistikasi. – Toshkent, 2025–2026.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Hududlar statistik to'plami. Andijon viloyati. – Toshkent, 2025.
8. OECD. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. 4th ed. – Paris: OECD Publishing, 2018.
9. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.
10. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. – Washington, D.C.: World Bank.
11. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
12. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
13. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985.
14. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. 5th ed. – New York: Free Press, 2003.





15. Saaty T.L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. – New York: McGraw-Hill, 1980.
16. Shannon C.E. A Mathematical Theory of Communication // Bell System Technical Journal. – 1948. – Vol. 27. – No. 3. – P. 379–423.
17. Charnes A., Cooper W.W., Rhodes E. Measuring the Efficiency of Decision Making Units // European Journal of Operational Research. – 1978. – Vol. 2. – No. 6. – P. 429–444.
18. Анчишкин А.И. Наука – техника – экономика. – Москва: Экономика, 1986.
19. Клейнер Г.Б. Стратегия предприятия. – Москва: Дело, 2008.
20. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент. – Москва: Дело, 2006.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**